

## MINTAQALARDA DORIVOR O‘SIMLIKLAR YETISHTIRISH BO‘YICHA RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

*Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna,  
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi  
E-mail: [baxriddinovayulduz7@gmail.com](mailto:baxriddinovayulduz7@gmail.com)  
Tel: +998944620251*

**Annotatsiya:** Maqolada dorivor o‘simliklar yetishtirish bo‘yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi iqtisodiy-statistik usullar yordamida keng qamrovli tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqalarda dorivor o‘simlik yetishtirish samaradorlik ko‘rsatkichlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** dorivor o‘simliklar, iqtisodiy-statistik usullar.

### I.KIRISH

Mintaqada sog‘lom turmush tarzini tashkil qilish har qanday mamlakatning davlat siyosati va ilmiy-tadqiqot obyektining muhim ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu ustuvor yonalishlar ijrosi farmatsevtika sohasini barqaror rivojlanishiga bog‘liq. Bugungi kunga kelib farmatsevtika mahsulotlarining ijtimoiy ahamiyati shu darajaga yetdiki, hukumat ushbu sohani rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarga jiddiy e‘tibor qaratishga majbur. Bu kabi muammolarni bartaraf qilishda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabning oshishi hisobiga mintaqaning agrosanoat majmui va qishloq xo‘jalik tarmog‘iga qator vazifalar qo‘yiladiki, ularni kompleks holda hal etish talab etiladi.

Hududlarda dorivor o‘simlik mahsulotlari yetishtirishda muhim muammolardan biri uni ishlab chiqarish usullari va mexanizmlari masalasidir. Albatta, bu yerda gap davlatning dorivor o‘simliklar ishlab chiqarishi va farmatsevtika bozorini ham ichki, ham tashqi qo‘llab-quvvatlashi to‘g‘risida ketmoqda. Keltirilgan ikki yo‘nalish ham murakkab tizim bo‘lib, erkin bozor sharoitida faoliyat yuritishi og‘irroq hisoblanadi va albatta hukumatning samarali aralashuvini talab qiladi. Nazariya va amaliyotlar dorivor o‘simliklar yetishtirish orqali farmatsevtika sohasini rivojlantirish bevosita tarmoqni davlat tomonidan tartibga solishdagi roli hamda darajasiga bog‘liq ekanligini isbotlamoqda.

### II.ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqalarda dorivor o‘simliklar ishlab chiqarish masalalari yuzasidan ko‘plab mamlakatimiz va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari keng tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimi N.R.Xo‘jaqulova ilmiy tadqiqot ishlarida asosan dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish masallariga e‘tibor qaratgan. Uning fikricha, mintaqalarda «Dorivor o‘simlikchilik klaster-kooperatsiyasi»ni tashkil etish zarur. Buning natijasi dorivor o‘simliklarni yetishtirish, quritish, saqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulot sotishni yagona tizimga birlashtiradi<sup>40</sup>.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar P.Glogov M.Georgieva va D.Pavlovalarning fikriga ko‘ra, dorivor o‘simliklarni saqlash va ulardan foydalanishni tashkil qilish

<sup>40</sup> N.R.Xo‘jaqulova. // Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. // PhD. Dissertatsiya. Qarshi 2023 y.

ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar va mahalliy bilimlarni hujjatlashtirishni talab qiladi. Dorivor o'simliklar yetishtirish orqali aholining daromadlarini oshirishga qo'shgan hissasini baholash, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar bo'yicha qanday o'zgarishini baholashga imkon beradi<sup>41</sup>.

Xorijlik olimlardan Muhammad Fahim o'zining “Role of medicinal plant in human health disease” nomli maqolasida aholi salomatligida dorivor o'simliklarning o'rni juda muhim ekanligini yoritib bergan. Mazkur maqolada mintaqalarda aholi salomatligini yaxshilash uchun dorivor o'simliklar va farmaseftikaning sanoatini rivojlantirishning iqtisodiy-statistik tahlili amalga oshiriladi<sup>42</sup>.

### III.NATIJALAR

Tadqiqotning asosiy maqsadi dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi iqtisodiy-statistik usullar yordamida keng qamrovli tahlil qilish hamda mintaqalarda dorivor o'simlik yetishtirish samaradorlik ko'rsatkichlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida mantiqiy yondashuv, solishtirma tahlil, kuzatish kabi iqtisodiy-statistik usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotlar natijasi ko'rsatmoqdaki, mintaqalarda dorivor o'simliklar ishlab chiqarishda mamlakatning agrar salohiyat darajasiga qarab uchta yondashuvga ajratish mumkin. Bular eksportga yo'naltirilgan, proteksionizm va oraliq yondashuvlardir. Proteksionizm va eksportga yo'naltirilgan yondashuvlarning asosiy farqi, dorivor o'simliklar yetishtirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ulushi juda yuqori bo'ladi. Oraliq yondashuvda eksportga yo'naltirilgan va proteksionizm yondashuvlar orqali maqbul yo'lni kuzatib boradi. Mamlakatda farmatsevtika sanoatini mahalliy dorivor o'simliklar bilan ta'minlashning proteksionizm yondashuvining eng mashhur davlati Xitoydir.

### IV.MUHOKAMA

**Xitoyda** dorivor o'simliklar ishlab chiqarish va ulardan insonlarni davolashda foydalanish bir necha ming yil oldin boshlangan. Miloddan avvalgi 2500-yillarga to'g'ri keluvchi Inson salomatligiga foydali dorivor o'simliklar haqidagi birinchi kitob Xitoyda nashr qilindi. Tarixga nazar salsak, Xitoyda an'anaviy tibbiyot doimo davlat tomonidan qo'llanib kelinganini, dorivor o'simliklar ishlab chiqish ko'rsatkichlari juda yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Mamlakat tibbiyotining eng faol tiklanishi 20-asrning o'rtalariga to'g'ri keldi. Xitoy dunyoga har yili o'rtacha 140450 tonna dorivor o'simlik mahsulotlarini eksport qiladi. Hozirgi kunga kelib mamlakatning an'anaviy dori vositalari, davolash tajribasi, dorivor o'simliklar xom ashyolarining kimyoviy tarkibi va farmakologik faolligi butun dunyo olimlari tomonidan eksperimental o'rganilmoqda. Dorivor o'simliklarning ilmiy tibbiyotga joriy etish uchun istiqbolli

<sup>41</sup> P.Glogov, M.Georgieva & D.Pavlova. 2018. Reports 130–141. – In: Vladimirov, V. & al. (comp.), New floristic records in the Balkans: 37. – Phytol. Balcan., 24(3): 412-415.

<sup>42</sup>Nidhi Varshney, Divya Jain, Pracheta Janmeda, and Debasis Mitra. Role of medicinal plants in pharmaceutical sector: an overview // Published online 2021 Sep 18.

turlarini topish maqsadida Xitoy an'anaviy tibbiyotida 100 ga yaqin maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan. An'anaviy Xitoy tibbiyoti o'z faoliyatida 12 mingdan ortiq fanga ma'lum bo'lgan yovvoyi va madaniy dorivor o'simliklardan foydalanadi<sup>43</sup>. Bundan tashqari, hozirda Xitoyda xomashyoning umumiy hajmida madaniy dorivor o'simliklarning ulushi yovvoyi o'simliklar ulushiga nisbatan yuqori ekanligi kuzatilmoqda. Xitoyning yangi istiqbolli dasturlarida dorivor o'simliklar ishlab chiqarishni moliyalashtirishni ko'paytirish va uzoq muddatli istiqbolda ilm-fan va texnologiyalarning ilg'or yutuqlarini joriy etishni rag'batlantirish rejalashtirilgan.

**Yaponiya** davlatida dorivor o'simliklar qadim zamonlardan beri odamlar hayotini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy kitoblar (Yaponiya, Xitoy va Hindiston mamlakatlarining dorivor o'simlikdan foydalanish bo'yicha qo'llanmalari) dan ko'rishimiz mumkinki, qadimdan insonlar dorivor va xushbo'y o'simliklarning qadr-qimmatini, ahamiyati va jozibadorligi haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lishgan. Eramizning 712 yilida yozilgan Yaponiya tarixi kitobi "Kojiki"da mahalliy aromatik va dorivor o'simliklarning nomlari keltirilgan bo'lib bugungi kunga kelib Yaponiya an'anaviy tibbiyotida 20 000 ga yaqin o'simlik va dorivor o'simlik turlari qo'llaniladi<sup>44</sup>. Yaponiyada dorivor o'simliklarni ishlab chiqarish va ko'paytirish, kimyoviy va biologik baholash, sohani rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar odatda "Dorivor o'simliklar resurslarini tadqiq qilish markazi" tomonidan amalga oshiriladi. Bu markaz hozirgi kunga qadar dorivor o'simliklar bo'yicha Yaponiyadagi yagona kompleks tadqiqot markazidir. Mamlakatning dorivor o'simliklar yetishtirish va tibbiyotda qo'llanishining muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri, mazkur tarmoqqa ilg'or zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishidir.

**Hindiston** mamlakati dunyoda dorivor o'simliklar xom ashyosini sotuvchi davlatlarning mashhur vakillaridan biridir. Mamlakatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning 90 foizi Hindiston yovvoyi tabiatdan yig'ib olinadi. Mamlakatda so'nggi yillarda dorivor o'simliklar yetishtirish va ularni saqlab qolish bilan bog'liq muammolar ko'paymoqda. Shu sabbli mamlakatda aniqlangan 6560 turdan dorivor o'simliklardan 315 tasi haddan tashqari ekspluatatsiya natijasida yo'q bo'lib ketish xavfi ostida.

Hindiston hukumati tomonidan dorivor o'simliklarni yo'q bo'lib ketish xavfini oldini olish maqsadida qishloq xo'jaligi sohasini barqaror rivojlantirishni ustuvor tadbirlar dasturi qabul qilindi. Ushbu qabul qilingan dasturning asosiy maqsadi agrosanoat majmuining barqaror rivojlanishini ta'minlash, mahalliy o'simliklarni saqlab qolish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardosh ustunliklarini ishlab chiqish edi.

**Qozog'iston** Respublikasida o'simliklarning hozirgi holati shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridagi o'zgarishlar, mamlakatda dorivor o'simliklar

<sup>43</sup>SHi L., Tkachenko K.G. O vyrashchivanii lekarstvennyh rastenij v Kitae. – URL: <https://www.lekrs.ru/> (data obrashcheniya: 03.02.2022).

<sup>44</sup>Farnsworth NR, Soejarto DD. Global importance of medicinal plants. In: Akereb O, Heywood V, Syngé H editors. Conservation of Medicinal Plants. Cambridge University Press: Cambridge; 2023. p. 362. ISBN 0521392063, 9780521392068

yetishtirish uchun ajratilgan ekin maydonining qisqarishiga sabab bo‘ldi. Mamlakatda dorivor o‘simliklarning xilma-xilligi milliy bog‘lar va davlat qo‘riqxonalari kabi hududlarni yaratish orqali saqlanadi. Ayni paytda Qozog‘istonda alohida muhofaza etiladigan umumiy o‘simliklar ekin maydoni 5678,7 ming gektarni tashkil etadi. Shu jumladan: 14 ta davlat qo‘riqxonasi 3429,4 ming gektar; 11 ta davlat milliy bog‘i 2249,3 ming gektar.

Hozirda, qo‘shni Qozog‘istonda mavjud 6000 turdagi o‘simliklardan 10 foizi yo‘qolib ketish xavfi mavjudligi qayd etilgan. Mamlakat xalq tabobatida mahalliy dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turlaridan foydalanib, 263 ta o‘simlik ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Dorivor o‘simliklarning xilma-xilligining sababi Qozog‘iston uchta genetik markazning tutashgan joyida joylashganligidir. Shuningdek, mintaqada tuproq va iqlimning xilma-xilligi dorivor o‘simliklarning ko‘p sonli turlari o‘sishi va rivojlanishi uchun yashash muhitini ta‘minlaydi. So‘nggi vaqtlarda Qozog‘istonning markaziy va shimoliy mintaqalarida tabiiy o‘simliklar turlarini o‘rganish va yovvoyi dorivor o‘simliklar urug‘larini yig‘ish uchun ko‘plab ekspeditsiyalar tashkil etildi<sup>45</sup>. Albatta, tabiiy o‘simliklar turlarini saqlab qolishning eng yaxshi usuli ularning tabiiy yashash joylarida mavjudligini ta‘minlashdir. Qozog‘istonning shimoliy, sharqiy va markaziy hududlarida yovvoyi dorivor o‘tlarning nazoratsiz yig‘ib olinishi hisobiga biologik xilma-xillikning, xususan, dorivor o‘simliklarning ayrim turlarini yo‘qolishi kuzatilmoqda.

**Rossiyada** 2021-yillarga qadar dorivor o‘simliklar etishtirish va ularni saqlab qolish qishloq xo‘jaligining nisbatan mashhur bo‘lmagan sohalaridan biri bo‘lgan. Ammo hozirgi iqtisodiy sharoitda bu bozor Rossiya qishloq xo‘jaligi uchun chinakam oltin koniga aylanmoqda.

Rossiyaning "Plant-Box" korxonasi etakchi agronomi Irina Kulishovaning takidlashicha, “Hozirgi vaqtda Rossiya dorivor o‘simliklar bozoridagi talab dorivor o‘simliklarga bo‘lgan taklifdan sezilarli darajada oshgan. Defitsitning shakllanishiga Rossiyaga dorivor xom ashyo etkazib berish bilan shug‘ullanadigan yirik kompaniyalarning bozordan chiqib ketishi sabab bo‘lgan”. Tahlil natijalari ham ko‘rsatmoqdaki, 2019-yilda Rossiyaga Xitoy, Polsha va Turkiya davlatlaridan 80 foizgacha dorivor o‘simlik import qilingan. 2022-yilning mart oylariga kelib vaziyat keskin o‘zgardi – ayrim xorijiy korxonalar Rossiya bozorlarini tark etdi. Buning natijasida import ko‘lamini hisobga olgan holda bozordagi taqchillik sezilarli bo‘lib, import o‘rnini bosishga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshdi. Bu kabi dolzarb muammolarni bartaraf qilish maqsadida Rossiya hukumati tomonidan 2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ro‘yxatiga dorivor o‘simliklar ham kiritildi. Endi mamlakatda dorivor o‘simliklar ishlab chiqaruvchi soha vakillari qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtiruvchilar kabi faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida davlat tomonidan yordam so‘rashlari mumkin.

Hozirda Rossiyada dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab 170 ming tonnaga yaqin. Ayni paytda 100 ming gektar maydonga dorivor o‘simliklarni ekish imkoniyati mavjud. Rossiyaning qishloq xo‘jaligi istiqbolli dasturida, dorivor o‘simlik xomashyo

<sup>45</sup>[https://www.researchgate.net/publication/329793702\\_Medicinally\\_Important\\_Plants\\_of\\_Kazakhstan](https://www.researchgate.net/publication/329793702_Medicinally_Important_Plants_of_Kazakhstan)


eksporti 2035-yilga borib har yili 10-15 milliard dollar miqdor bo‘lishi rejalashtirilgan. Ma‘lum bo‘lishicha, dorivor o‘simliklarni yetishtirganda ishlab chiqaruvchi kam xarajat evaziga ko‘proq foyda oladi. Bunday ishlab chiqarishning rentabelligi 70 foizdan yuqori darajada qolmoqda.

**Afrikada** dorivor o‘simliklarga bo‘lgan yuqori talab bilan bir qatorda dorivor o‘simliklarning qit‘a hududidan yoqolib ketish xavfi saqlanib qolmoqda. Bunga sabab aholi sonining ko‘pligi, mintaqadagi quruq va issiq iqlim sharoitidir. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Afrikada har yili 5 million tonnadan ortiq dorivor o‘simliklar yetishtiriladi.

Afrika aholisining qariyb 80 foizi mahalliy dorivor o‘simliklarga ehtihoj sezadi. Birgina Marokash davlati yiliga 58,7 tonna dorivor o‘simliklar eksport qiladi. Dorivor o‘simliklarning global salomatlikka ijobiy ta‘siri hamda iqtisodiy va ekologik qadriyatlarini hisobga olgan holda mamlakatlarda dorivor o‘simliklar etishtirish va qayta ishlashga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida ilmiy va texnologik yutuqlarni joriy etish sohasida davlat siyosatini amalga oshirishdir.

Shunday qilib, dorivor o‘simliklar yetishtirish va ularni saqlab qolish bo‘yicha xorijiy tajribalar ushbu tarmoqdagi muammolarini hal etishda davlatning ustuvor rolini tasdiqlaydi. Davlat darajasida dorivor o‘simliklar yetishtirish orqali aholi salomatligini ta‘minlashda import va eksportga yo‘naltirilgan yondashuvlar yuqori darajada qo‘llab-quvvatlanadi.


2022-yilda dorivor o‘simliklar bozorida sotiladigan o‘simliklar mahsulotining umumiy qiymati 1,1 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan. Bunda eng ko‘p dorivor o‘simlik sotib olgan davlat Gonkongdir (80555 tonna). Keyingi o‘rinlardan mos ravishta Yaponiya (57850 tonna) va AQSH (80555 tonna) mamlakatlari o‘rin olgan (1-rasm).



**1-rasm. Dunyodagi dorivor o‘simliklar xom ashyosini sotib oluvchi davlatlar (tonna)**

Dunyoda eng ko‘p dorivor o‘simlik sotgan davlat reytingiga nazar solsak, bu reytingda Xitoy davlati 140450 tonna dorivor o‘simlik xomashyolari bilan

pechqadamlik qilmoqda. Bu ko‘rsatkich Hindistonda 35650 tonna, Germaniyada 14900 tonna, Chilida 11700 tonna, Singapurda esa 14400 tonnani tashkil qilgan (2-rasm). 2020-yilda dunyo mamlakatlarida dorivor o‘simliklar asosidagi vositalar aylanmasi 100,9 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, yillik o‘shish 7,2 % dan iborat bo‘lgan. Mazkur davrda O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar xom ashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qiymati 1,7 mln. AQSH dollarni tashkil qilgan.



**2-rasm. Dunyodagi dorivor o‘simliklar xom ashyosini sotuvchi davlatlar (tonna)**

**O‘zbekistonda** dunyoda ro‘y bergan pandemiya sababli mahalliy dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab 3 barobarga ortdi. Insonlar sog‘lig‘iga alohida e‘tibor berishi uchun tabiiy vositalarni afzal ko‘rishmoqda. Dunyoda markaziy osiyo mintaqasi xususan O‘zbekiston respublikasi tabiiy va geografik jihatdan dorivor o‘simliklarga boy hudud. Mamlakatda tabiiy holda mavjud 4500 turga yaqin o‘simlik turlaridan 1200 ga yaqini dorivorlik xususiyatiga ega<sup>46</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4901-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorning asosiy maqsadi respublika hududlarida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg‘or ilmiy ishlanmalarini o‘rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o‘rnatish hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kuchaytirishdan iborat<sup>47</sup>. Mazkur qarordan kelib chiqib O‘zbekistonda bir qancha dorivor o‘simliklar ishlab chiqarish klasterlari tashkil etilgan.

Mazkur klasterlar faoliyatini quyidagi dorivor o‘simliklar yetishtirish bilan amalga oshirmoqda (3-rasm).


<sup>46</sup> <https://www.agro.uz/dorivor-osimliklar>

<sup>47</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4901-son qarori.

1	• Moychechak
2	• Kovrak
3	• Limono‘t
4	• Qalampir yalpiz
5	• Qizilmiya
6	• Za‘faron
7	• Na‘matak

**3-rasm. O‘zbekistonda klasterlar tomonidan yetishtirilayotgan dorivor o‘simliklar**

3-rasmda keltirilgan ettita turdagi dorivor o‘simliklar yetishtirishga ixtisoslash klasterlar o‘z ish faoliyatlarini tashkil qilishda asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilangan (4-rasm).



**4-rasm. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar faoliyatining asosiy vazifalari**

Tahlillar natijasi ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda hozirda farmatsevtika sanoatining ehtiyojlarini dorivor o‘simliklar xomashyosi bilan ta‘minlash eng asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lmoqda. 2021-yilda mamlakatda dorivor o‘simliklar yetishtirish ekin maydonlarining hajmi 15,8 ming gektarga yetkazilib, 45 turdagi 17,3 ming tonna dorivor va ziravor o‘simlik xomashyolari ishlab chiqildi<sup>48</sup>.

Mamlakatda dorivor o‘simliklar eksport salohiyati so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Masalan 2021-yilda 37 ta davlatga umumiy qiymati 55 mln dollari miqdorida dorivor o‘simlik xom-ashyolari eksport qilingan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2020 yilda 50 mln dollarini tashkil qilgan edi. Bu natijalar dorivor o‘simliklar sohasining imkoniyati yuqori ekanligidan dalolatdir.

## V.XULOSALAR

Yuqoridagi tahlillar natijasi ko‘rsatmoqdaki, an‘anaviy tibbiyotdan foydalanish faqat rivojlanayotgan mamlakatlar bilan cheklanmaydi. So‘nggi yillarda sanoati rivojlangan mamlakatlarda dorivor o‘simliklar yetishtirish, qayta ishlash va tabiiy davolash usullaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Farmatsevtika sanoatida ko‘plab dori vositalarini ishlab chiqarish uchun boshlang‘ich xom-ashyo sifatida dorivor o‘simliklardan foydalanadilar. Dunyo bo‘ylab sotiladigan dori vositalarining qariyb o‘ttiz foizi o‘simlik materiallaridan olingan birikmalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, mazkur tarmoq rivojlangan mamlakatlarda millionlab odamlarni ish bilan ta‘minlaydigan va YaIMga sezilarli hissa qo‘shadigan asosiy daromad manbai va muqobil turmush tarzidir.

Shu boisdan qayd etish lozimki, ayni global ekologik muammolar oshib borayotgan bir vaqtda birgina mamlakatimizda emas, balki butun dunyoda dorivor o‘simliklar ishlab chiqarish va saqlash jarayonlarining asosiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri tanlash va amalda qo‘llash muammosi muhim masalaga aylanmoqda.

## VI.ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4901-son qarori.
2. Nidhi Varshney. // Role of medicinal plants in pharmaceutical sector: an overview // Published online 2021 Sep 18., 102 p.
3. P.Glogov. // New floristic records in the Balkans: 37. – Phytol. Balcan., 24(3): 2018 g. 412-415 str.
4. N.R.Xojaqulova // Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (qashqadaryo viloyati misolida) // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi. Qarshi 2023 y, 120-bet.
5. L.SHi, K.G.Tkachenko // O vyrashchivaniy lekarstvennyh rastenij v Kitae. – URL: Kirish rejimi: <https://www.lekrs.ru> (data obrashcheniya: 03.02.2022)

<sup>48</sup> <https://www.agro.uz/dorivor-osimliklar>



6. Farnsworth NR. // Global importance of medicinal plants. In: Akereb O, Heywood V, Synge H editors. Conservation of Medicinal Plants. Cambridge University Press: Cambridge; 2023. p. 362. ISBN 0521392063, 9780521392068
7. Qozog‘istonning «Ilm-fan olami» elektron jurnali **Kirish rejimi:** [https://www.researchgate.net/publication/329793702\\_Medicinally\\_Important\\_Plants\\_of\\_Kazakhstan](https://www.researchgate.net/publication/329793702_Medicinally_Important_Plants_of_Kazakhstan)
8. [www.fao.org](http://www.fao.org) - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) rasmiy sayti.
9. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining rasmiy sayti.
10. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.